Аннотация: В статье анализируется современное состояние цифровой трансформации услуг, предоставляемых физическим лицам коммерческими банками. В условиях цифровой экономики модернизация банковских услуг способствует сокращению объёма наличного денежного обращения вне банков, уменьшению доли теневой экономики, повышению эффективности взимания налогов и обязательных платежей, ликвидации коррупционных схем и обеспечению финансовой прозрачности. Финтех-инновации (блокчейн, Big Data, искусственный интеллект, мобильный банкинг, интернет-банкинг, SMS-банкинг и др.) не только делают банковские услуги более быстрыми, удобными и безопасными, но и усиливают клиентоориентированный подход в финансовом обслуживании. Международный опыт, включая развитие необанков, сотрудничество со стартапами и интеграцию новых технологий, также открывает широкие возможности для банковского сектора Узбекистана. SWOT-анализ показывает, что внедрение финтеха предоставляет банкам значительные сильные стороны и возможности, но также выявляет существующие слабые стороны и внешние угрозы, что помогает определить будущие стратегические направления. В результате цифровая трансформация в коммерческих банках укрепляет конкурентоспособность, повышает эффективность обслуживания и ускоряет интеграцию в международные финансовые рынки.

Ключевые слова: коммерческие банки, цифровая трансформация, финтех, мобильный банкинг, интернет-банкинг, SMS-банкинг, блокчейн, искусственный интеллект, Big Data, необанк, финансовые услуги, финансовые технологии, дистанционные банковские услуги.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni bank xizmatlarini modernizatsiya qilish va moliyaviy sektorni samarali rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli transformatsiya orqali bir qator muammoli vaziyatlarga barham berish mumkin, jumladan, bankdan tashqari bo'lgan naqd pul aylanmasini maksimal darajada qisqartirish, yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini soddalashtirish va bunda inson omilini minimallashtirish orqali korrupsion tizimlarni bartaraf etish. Shu bilan birga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish jarayonini takomillashtirish, ularning doimiy tushumini o'z vaqtida ta'minlash imkoniyatlari ham kengaymoqda. Moliyaviy sektor raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanib, kriptovalyutalar va ICO mexanizmlarini joriy etish orqali xalqaro valyuta-kredit resurslarini milliy iqtisodiyotga jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar (to'lov tizimlari, sug'urta kompaniyalari va boshqalar) fintech sohasidagi muammolarga javoban istiqbolli startaplarni sotib olish, ular bilan hamkorlik qilish yoki asosiy biznes faoliyati doirasida fintech bo'linmalarini yaratish orqali jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini va ko'lamini kengaytirishga erishmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarida jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlarning raqamli transformatsiyasi tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Avvalo, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari, fintech innovatsiyalarining (blokcheyn, Big Data, sun'iy intellekt, mobil va internet-banking) qo'llanilishi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tajriba o'rganildi. Empirik bosqichda tijorat banklari hisobotlari, Markaziy bank statistikasi va amaliy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. SWOT tahlili orqali raqamli transformatsiyaning kuchli va zaif tomonlari, tashqi imkoniyatlari hamda xavf-xatarlari baholandi. Shuningdek, qiyosiy tahlil asosida neobanklar rivoji va startaplar bilan hamkorlik tajribalari ko'rib chiqildi. Tadqiqotda hujjatli tahlil, qiyosiy yondashuv, statistik tahlil va amaliy kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari xalqaro miqyosda keng o'rganilmoqda. Big Data, sun'iy intellekt, blokcheyn va mobil texnologiyalar asosida qurilgan yechimlar bank xizmatlarini nafaqat tezkor va qulay, balki samarali va shaffof qilish imkonini bermokda. Masalan, Arner, Barberis va Buckley (2016) fintech rivojlanishining uch bosqichini ko'rsatib, moliyaviy xizmatlarning yangi avlodini yaratishda texnologiyalarning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi.

Yevropada olib borilgan tadqiqotlarda raqamli banklarning (neobanklar) mijozlarga xizmat ko'rsatishda tezkorlik, arzonlik va shaffoflik kabi ustunliklari alohida qayd etilgan (Nicoletti, 2017). AQSh tajribasida esa yirik banklar (JP Morgan, Goldman Sachs) fintech startaplariga faol investitsiya kiritib, o'z infratuzilmasini ochiq API orqali uchinchi tomon ishlab chiquvchilarga taqdim etayotgani qayd etiladi (Gomber, Koch & Siering, 2017).

O'zbekistonda ham tijorat banklarida raqamli transformatsiyani jadallashtirish yo'lida xalqaro fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilinmoqda. Bu jarayon bank xizmatlarining yangi sifat bosqichiga o'tishini



ta'minlab, masofaviy xizmat turlari – internet-banking, mobil-banking, SMS-banking – keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi (Mirzaev, 2021). Shu bilan birga, fintechning joriy etilishi SWOT tahlili orqali ham ko'rib chiqilib, kuchli tomonlar (tezkorlik, qulaylik, xarajatlarni kamaytirish) bilan bir qatorda, zaif tomonlar (qonunchilikdagi noaniqliklar, xavfsizlik muammolari) ham o'rganilmoqda (Kuzin & Petrova, 2020).

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonlari tijorat banklari uchun strategik ustuvor yo'nalish bo'lib, u nafaqat xizmatlarni takomillashtiradi, balki moliya bozorida raqobatbardoshlikni ham keskin oshiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fintech ishtirokchilari bilan hamkorlik tajribasi shuni ko'rsatadiki, Amerika banklari — jumladan JP Morgan va Goldman Sachs — uchinchi tomon ishlab chiquvchilari uchun API platformalarini ochib, startaplarga faol investitsiyalar kiritmoqda. Bu yondashuv yangi texnologiyalarni tezkor joriy etish va bank xizmatlari sifatini oshirish imkonini bermoqda. Yevropa banklari, masalan, ING va UniCredit, ham fintech yo'nalishida rivojlanishga e'tibor qaratib kelmoqda, biroq ular asosan o'z ichki strategiyalarini shakllantirish va bosqichma-bosqich raqamli transformatsiyani amalga oshirishni afzal ko'rishmoqda.

1-jadval. Fintex ishlanmalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari¹

Yo'nalish	Fintech kompaniyalariga misollar
To'lovni qayta ishlash va to'lov kanallarini qo'llab-quvvatlash	Stripe; Klarna; Toast; Payoneer; Marqeta; Razorpay; TouchBistro; Previser; Handle; GoCardless; Upserve; Ezetap; Yapstone; Veem; Origami
Mobil hamyonlar va pul o'tkazmalari xizmatlari	Transferwise; AntFinancial; BitGo; Circle; WorldRemit; One97; Ledger; Ripple; Paga; PayTM; Yellowpepper; Coins.ph; Toss, MOMO, Zoon
Raqamli bank	Greenlight; Uala; Petal; BREX; MONZO; CAPITAL; CHIME; N26; NUBank; Gimi
Ko'p profilni kredit xizmatlari va bozorlar	LU.com; JUMO; LendKey; progressa; WeLab; Lendio; GoFundMe; CircleUp; TrueAccord; JD Finance; CGTZ.com
POS kreditlash va individual kreditlash	Bread; Upgrade; Branch; RaiseMe; Brighte; Prodigy Finance; Fair; Tala; Affirm; SoFi; Creditas; LendUp
Korporativ kreditlash va moliyalashtirish	Kabbage; BlueVine; Behalf; Fundbox; CapitalFloat; First Circle; Lendingkart; Prospa; MarketInvoice; TradeShift
Ipoteka xizmatlari	Better; Blend; Habito; Roostify
Avtomatlashtirilgan bank tizimlari va bank infratuzilmasi	Plaid; Tradelt; SynapseFi; Pintec; NCINO.; Quovo; TINK; Leveris; Openfin; Cobase; Truelayer; Deposit Solutions
Skoring tizimlari va tahlillari	Credit Karma; Nav; Nova; Ice Kredit; ID Finance; Juvo; Lendstreet; CreditMantri; InDiaLends; Wecash
Normativ texnologiyalar va koplans	Onfido; Fenergo; Forter; Sift Science; Clausematch; Chainalysis; Biocatch; ComplyAdvantage; BehaviorSec; HARBOR

Bugungi kunda bank sektorida keng ommalashayotgan neobank modeli esa an'anaviy xizmatlar to'plamiga (hisobvaraqlar ochish, kreditlash, depozitlar va boshqalar) ega bo'lgan, biroq jismoniy filiallarsiz faoliyat yurituvchi yangi turdagi banklarni nazarda tutadi. Neobanklar mobil ilovalar, veb-saytlar va ijtimoiy


¹ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.



tarmoqlar orqali mahsulot va xizmatlarni taqdim etib, mijozlarga oddiy interfeys, kuchli masofaviy yordam va aniq tariflar asosida qulay xizmat ko'rsatmoqda. Masalan, Number26 (hozirgi N26) Germaniyada 2015-yilda ishga tushirilgan bo'lib, qisqa vaqt ichida Yevropaning sakkizta davlatida 200 mingdan ortiq mijozni jalb qilgan va o'z litsenziyasini olib, mustaqil bank sifatida faoliyat yurita boshlagan. Xuddi shuningdek, Buyuk Britaniyada 2016-yilda ish boshlagan Atom Bank qisqa muddatda 110 million funt sterling depozitlarni jalb qilib, masofadan omonat va ipoteka xizmatlarini taqdim etishga muvaffaq bo'ldi. Neobanklarning biometrik autentifikatsiya (yuz va ovoz orqali tanish) kabi innovatsion yechimlari esa ularni mijozlar uchun yanada ishonchli va qulay platformaga aylantirmoqda².

Yangi mijozlar toifalarini jalb qilmoqchi bo'lgan an'anaviy banklar ham ta'sischi sifatida qatnashishi mumkin aniq maqsadli auditoriya uchun neobanklarni yaratish tendensiyasi so'ngi yillarda jadal rivojlanmoqda. Misol uchun, Singapur YoloLite va Daniya Ernit bolalar va ularning ota-onalari uchun mo'ljallangan, British Monese Londondagi chet elliklar uchun yaratilgan, British Loot va Gong Kong Neat talabalar uchun neobank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, fintech startaplarining rivojlanishi hozirda regulyatorlar tomonidan davom etayotgan taqiqlar orqali to'xtab qolmoqda. Taqiqlarning olib tashlanishi an'anaviy banklar uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda an'anaviy banklarning hammasi ham zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni qabul qilishga tayyor emas (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy xizmatlar sektorini raqamli transformatsiyalash sharoitida banklarda Fintech ishlanmalari bilan integratsiyalash bosqichlari³


Bank xizmatlarini yanada jozibador narxlarda taklif etishga imkon beruvchi fintech ishlanmalari – blokcheyn, DLT, peer-to-peer, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data), bulutli saqlash, sun'iy intellekt (AI), ERP va CRM tizimlari banklarni xarajatlarni optimallashtirish hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish qulaylik darajasini oshirish maqsadida an'anaviy biznes modellarini tubdan o'zgartirishga majbur qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar bozoriga fintech innovatsiyalarining faol kirib kelishi natijasida bank sektori xizmat ko'rsatish tannarxini pasaytirish, mahsulotlarning bozor jozibadorligini oshirish va yangi iste'mol qiymatini shakllantirish orqali mijozlar to'lashga tayyor bo'lgan xizmat qulayligini kuchaytirishga erishmoqda.

Bunday strategiya uzoq muddatda eng samarali yo'nalish sifatida qaralmoqda. Chunki yirik banklar va mustaqil startaplar tomonidan fintech innovatsiyalarining jadal rivojlanishi moliya sektorida yangi raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, ularni amaliyotga tatbiq etishning past darajasi kichik va mintaqaviy banklar faoliyatiga sezilarli tahdid solishi mumkin. Natijada chakana savdo va tranzaksiya xizmatlaridan olinadigan foydaning katta qismi yirik banklar hamda muvaffaqiyatli raqamli startaplar ixtiyoriga o'tishi, bu esa moliya bozorida kuchlarning qayta taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Moliyaviy texnologiya tendensiyalariga va moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasining yuqori tezligi bilan hamnafas rivojlanmaslik moliyaviy xizmat ko'rsatish bozorida katta yutqazishlarga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda fintech startaplarining raqobatbardosh sohalari sezilarli darajada kengaydi va neobanklar an'anaviy banklarga qaraganda operatsion faoliyatini oson, qulay, tez va kamxarj amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi (2-rasm).

² habr.com

³ Tadqiqotchi ishlanmasi.



2-rasm. Fintech ishlanmalaridan bo'lgan neobank va an'anaviy bank modellari xizmatlari taqqoslash tahlili⁴

Banklarda Big Data texnologiyalaridan foydalanish nafaqat fintech startaplari tajribasini nusxalash orqali xizmatlarni soddalashtirish, balki moliyaviy mahsulotlarning o'zini transformatsiya qilish va ularga qo'shimcha qiymat qo'shish imkonini bermoqda. Ushbu texnologiyalar mijozlarning xatti-harakatlari, ehtiyojlari va talablarini chuqur tahlil qilish orqali bank xizmatlaridan foydalanish jarayonini maksimal darajada qulaylashtiradi hamda bozor talabini samarali boshqarish imkonini yaratadi. Ayniqsa, moliyaviy texnologiyalarga asoslangan mobil yechimlar yordamida mahsulotlarni onlayn realizatsiya qilish xizmatlarning qulaylik, ishonchlilik (biometrik autentifikatsiya) va foydalanish imkoniyatlarini oshirib, mijozlarga individual yondashuv asosida xizmat ko'rsatishni ta'minlamoqda.

Shu bilan birga, masofaviy bank xizmatlari bank operatsiyalarini jismoniy ravishda bankka tashrif buyurmasdan turib amalga oshirish imkonini beruvchi xizmatlar majmuasidir. Ular orqali mijozlar kompyuter yoki mobil qurilmalardan foydalanib, vaqt va moliyaviy xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masofaviy xizmatlar mazmuniga ko'ra ikki turga bo'linadi: informatsion va tranzaksion banking. Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking orqali real moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Ushbu jarayonning asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida axborotlarni xavfsiz va tezkor almashinishini ta'minlashdan iborat bo'lib, bu esa bank xizmatlarining sifatini oshirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda tijorat banklarida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatuvchi fintech texnologiyalari asosida qurilgan Bank-Mijoz, Internet-banking, Mobil banking, SMS-banking xizmatlari faol foydalanib kelinmoqda.

Bank-mijoz, internet-banking, mobil-banking va SMS-banking — bular bank xizmatlarini masofadan turib boshqarish imkonini beruvchi zamonaviy tizimlardir. Bank-mijoz tizimida mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatilib, modem orqali bank bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi va to'lov hujjatlari hamda hisobvaraqlardan ko'chirmalar shu dasturda saqlanadi. Internet-banking esa mijozlarga veb-brauzer orqali

4 Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.



bankning rasmiy saytiga kirib, o'z hisoblarini boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish, hisobotlarni olish va real vaqt rejimida jarayonni kuzatish imkonini beradi. Internet-banking negizida ishlab chiqilgan mobil-banking xizmatlari esa mijozlarga istalgan joy va vaqtda telefon orqali bank amaliyotlarini bajarish qulayligini taqdim etadi. Shuningdek, SMS-banking tizimi mijozlarga hisobvaraqlaridagi mablag'lar harakati, balans va kunlik operatsiyalar haqida SMS orqali tezkor xabardor bo'lish imkoniyatini yaratadi.

2-jadval. Xalqaro Fintech tashkilotlari tomonidan O'zbekistondagi tijorat banklar muammolariga taqdim etilayotgan Fintex ishlanmalari⁵

Fintech kompaniyalar	Hamkorlik yo'nalishlari	Shartnomalar imzolagan banklar ro'yxati
Finastra	Fusion Risk, Essence core va Islamic, TI Plus	Xalq banki
Temenos	Transact (islomiy va an'anaviy modul), omnichannel va raqamli yechimlar	Muzokarada
Oracle Financial services (OFSSA)	Flexcube asosiy bank yechimi (islomiy va an'anaviy) va front-ofisni raqamlashtirish	Muzokarada: Universal Bank, Infinbank, Apex Bank, Ziraat Bank. Front Ofisni raqamlashtirish: Kapital bank, O'zbekiston Milliy banki va Trastbank
ICSFS	Islom banki yechimlarini taqdim qiladi	TrustBank, QQB, Asia Alliance Bank, AgroBank
Colvir Software Solution	An'anaviy bank muammolariga yechimlarini taqdim qiladi	AloqaBank, Turon Bank
Capital Banking Solutions CBS	Asosiy bank yechimini taklif qiladi	Davr Bank, TBC Bank
ITS	Video Teller Machine va FIDO bilan oq yorliqli islom banking modulini taqdim etish bo'yicha hamkorlik	AgroBank
CFT (Centre Financial technology)	Asosiy bank ishi, mikroservis arxitekturasi	Ipoteka Bank
Walters Kluwer	Risklarni boshqarish bo'yicha yechimlar bo'yicha hamkorlik	Mavjud emas
Moody's	Risklarni boshqarish va g'aznachilik	Mavjud emas
Assecco	Call-markaz, risklarni boshqarish va asosiy bank yechimi (R Style)	Risklarni boshqarish: HamkorBank Call-markaz: Xalq banki
Tieto	Plastik karta bilan bog'liq muammolar, to'lovlar	Tasdiqlangan banklar ro'yxati
Avanza Solutions	Qo'ng'iroqlar markazi, Kartalarni boshqarish tizimi, Middleware, CRM tizimi	Mavjud emas
OpenWay	Kartalarni boshqarish tizimi bo'yicha hamkorlik	Tasdiqlangan banklar ro'yxati
Way4	Kartalarni boshqarish tizimi bo'yicha hamkorlik	Tasdiqlangan banklar ro'yxati
CompassPlus	Kartalarni boshqarish tizimi bo'yicha hamkorlik	Tasdiqlangan banklar ro'yxati
Modelfin	Sotuvchi	Tasdiqlangan banklar ro'yxati
BS2	Kartalarni boshqarish tizimi bo'yicha hamkorlik	Microcreditbank, Agrobank, OFB
Path Solutions	Asosiy bank ishi an'anaviy va islom	Mavjud emas
CodeBas Technology	Asosiy bank ishi an'anaviy va islom	Mavjud emas
Azentio	bank va sug'urta sektorlari uchun kreditlash va boshqa yechimlar	Mavjud emas
BPC (Banking Tech)	Kartani qayta ishlash va to'lov terminallar	Tasdiqlangan banklar ro'yxati
ELMA 365	Power BI tomonidan ishlab chiqilgan Business Intelligence yechimi	SQB, Ipak Yo'li Bank, InfinBank, Anorbank.

5 Tadqiqotchi ishlanmasi.



3-jadval bank ishida fintech ishlanmalaridan foydalanishning SWOT tahlili keltirilgan bo'lib, bu fintech startaplari sezilarli raqobatdosh ustunliklarga ega ekanligini, shuningdek, institusional cheklovlarni olib tashlash bilan moliyaviy xizmatlar bozorining yanada o'sishi imkoniyatini ko'rsatadi.

3-jadval. Bankda fintech ishlanmalaridan foydalanishning SWOT tahlili⁶

Kuchli tomonlari (S)	Zaif tomonlari (W)
- Bank xizmatlarida raqamli texnologiyalar orqali tezkorlik va qulaylikni ta'minlashi.	- Fintech infratuzilmasini joriy etish uchun dastlabki katta sarmoya talab etilishi.
- Naqd pul aylanmasini qisqartirish orqali pul oqimlarini shaffolashtirishi.	- Qonunchilikdagi noaniqliklar va huquqiy bazaning yetarli emasligi.
- Masofaviy xizmatlar orqali mijozlar bazasini kengaytirish imkoniyati.	- Kadrlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish malakasining pastligi.
- Xizmat ko'rsatish xarajatlarning kamayishi va bank foydaliligini oshirishi.	- Fintech tizimlarida yuz beradigan texnik nosozliklarning yuqori xavfi.
- Innovatsion xizmatlar orqali raqobatbardoshlikni oshirish.	- Mijozlarning yangi texnologiyalarga ishonchsizlik bilan qarashi.
Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
- Sun'iy intellekt, blokcheyn va "Big Data" texnologiyalaridan foydalanish orqali yangi biznes modellarini yaratish.	- Kiberxavfsizlik tahdidlari va axborot o'g'irlanishi xavfining ortishi.
- Xalqaro fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilib tajriba almashish.	- Bozorda kuchli raqobatning paydo bo'lishi va an'anaviy banklarning mijoz yo'qotishi.
- Mijozlar ehtiyojiga moslashtirilgan xizmatlarni yaratish va shaxsiylashtirilgan takliflarni berish.	- Bank tizimida ish o'rinlarining qisqarishi va ijtimoiy muammolarning yuzaga kelishi.
- Raqamli transformatsiya orqali yangi moliyaviy mahsulot va xizmatlarni tezkor joriy etish.	- Moliyaviy texnologiyalarni noto'g'ri boshqarish natijasida reputatsion xavf.
- Yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va soliqlarni yig'ishda samaradorlikni oshirish.	- Global iqtisodiy inqirozlar fonida fintech platformalarining barqarorligiga putur yetishi.

Shu bilan birga, banklarni yanada raqamlashtirishning asosiy tendentsiyalarini belgilab beruvchi fintech innovatsiyalarining paydo bo'lishi banklarning mijozlarga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni ko'paytirishga tizimli burilishini rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. Banklarda biznes jarayonlarini raqamlashtirish orqali kreditlash, hisob-kitob, to'lovlar, depozitlar, masofaviy xizmatlar, risklarni boshqarish va boshqa operatsiyalar elektron platformalarga o'tkazilib, ularning samaradorligi ta'minlanmoqda. Bu jarayon bank faoliyatida aqlli shartnomalar, aqlli boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan buxgalteriya va onlayn monitoring kabi texnologiyalarni keng qo'llash imkonini beradi. Natijada inson omili ishtiroki kamayib, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, daromad va xarajatlarni real vaqt rejimida kuzatish, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, operatsion xatolardan qochish, shaffoflikni oshirish va korrupsiya holatlariga barham berish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, banklarda fintech texnologiyalari yordamida mijozlarga qulay xizmatlar taqdim etilib, raqobatbardoshlik mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya bank sektorining strategik yo'nalishi hisoblanadi. Banklarda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat xizmatlarni modernizatsiya qiladi, balki moliyaviy tizimning shaffofligi va samaradorligini ham oshiradi. Shu orqali naqd pul aylanmasini qisqartirish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va soliqlarni undirish tizimini takomillashtirish mumkin.

Fintech innovatsiyalari bank xizmatlari sifatini tubdan o'zgartirmoqda. Blokcheyn, Big Data, sun'iy intellekt, mobil banking va internet-banking kabi texnologiyalar bank mahsulotlarini mijozlarga yanada qulay, tezkor va ishonchli shaklda taqdim etish imkonini bermiqda. Shu orqali mijozlar bazasini kengaytirish va xizmatlardan foydalanish intensivligini oshirishga erishilmoqda.

Neobanklar raqamli transformatsiyaning yangi bosqichi sifatida shakllanmoqda. Filialsiz banklar modeli (N26, Atom Bank va boshqalar) mijozlarga qulay interfeys, biometrik autentifikatsiya va shaffof tarif siyosati orqali yangi iste'mol qiymatini yaratmoqda. Bu esa an'anaviy banklar uchun raqobatni keskin kuchaytiradi.

6 Tadqiqotchi ishlanmasi.



SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fintech ishlanmalari banklar uchun katta imkoniyatlar ochib beradi (xizmat xarajatlarini kamaytirish, xalqaro hamkorlik, yangi biznes modellarini yaratish), ammo u bilan birga zaif tomonlar (qonunchilikdagi noaniqlik, texnik nosozliklar) va tahdidlar (kiberxavfsizlik muammolari, mijozlarning ishonchsizligi, ish o'rinlarining qisqarishi) ham mavjud.

O'zbekiston bank tizimi uchun asosiy vazifa – xalqaro fintech tajribasini inobatga olgan holda o'ziga xos rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq etishdir. Bu esa tijorat banklarining jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirib, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of fintech: A new post-crisis paradigm? *Georgetown Journal of International Law*, 47(4), 1271–1319.
2. Gomber, P., Koch, J., & Siering, M. (2017). Digital finance and fintech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics*, 87(5), 537–580. <https://doi.org/10.1007/s11573-017-0852-x>
3. Kuzin, V. I., & Petrova, N. V. (2020). Fintech ecosystem and banking sector transformation. *Financial Journal*, 12(2), 88–101.
4. Mirzaev, S. (2021). Digital banking transformation in Uzbekistan: Challenges and opportunities. *Central Asian Economic Review*, 3(1), 45–56.
5. Nicoletti, B. (2017). The future of fintech: Integrating finance and technology in financial services. Palgrave Macmillan. <https://doi.org/10.1057/978-1-137-60231-0>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
